



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING  
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION  
TADQIQOTLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI  
VA RIVOJLANISH  
TENDENSIYALARI:  
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR  
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK  
ANJUMAN MATERIALLARI  
TO'PLAMI**



15-16-MAY  
2026-YIL



Google  
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB  
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR  
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami  
(2026-yil 15-16-may)*

**JIZZAX-2026**

**ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA BO'LAJAK  
MUTAXASSISLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI  
SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

**p.f.f.d., dots. Mingboyev Ulugbek Xujayevich**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali  
[m\\_ulugbek1977@mail.ru](mailto:m_ulugbek1977@mail.ru)

**Raxmatov Alisher Shirinboyevich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Matematika kafedrası katta o'qituvchisi,  
[alisherraxmatov0@gmail.com](mailto:alisherraxmatov0@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bugungi globallashtirish va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalar qo'yilmoqda. Zamonaviy jamiyat nafaqat chuqur nazariy bilimga ega, balki o'z fikrini erkin va ravon ifoda eta oladigan, jamoa bilan samarali hamkorlik qiladigan, turli kommunikativ vaziyatlarda to'g'ri munosabat o'rnatishga qodir bo'lgan mutaxassislarni talab etmoqda. Shu sababli bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish masalasi bugungi ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, bo'lajak mutaxassis, texnikum ta'limi, pedagogik yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, muloqot madaniyati, kommunikativ ko'nikma, kommunikativ qobiliyat, pedagogik muloqot, interaktiv ta'lim.

Mamlakatimizdagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, shaxsda kommunikativlik, mas'uliyatni his qilish, tashabbus ko'rsatish, ijodiy yondashuv asosida muammolarga yechim topish va mustaqil qaror qabul qilish kabi ijtimoiy ahamiyatga ega ko'nikmalarni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Ushbu sifatlarni bo'lajak mutaxassislarda shakllantirish esa ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda texnikumlarda o'quvchilar uchun ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik sharoitlarni aniqlash va ularni nazariy asoslash muhim vazifa hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi o'quvchilarda ijtimoiy-gumanitar bilimlar asosida mukammal aloqa madaniyatini shakllantirish, ularni turli hayotiy holatlarda samarali muloqotga tayyorlash va ijtimoiy rol va funksiyalarni bajarishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim tizimining bosh maqsadi esa – bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirish, ularni nazariy bilimlar bilan bir qatorda, turli sohalardagi amaliy muammolarni hal qila oladigan malakali kadr sifatida shakllantirishdir.

Pedagogik tadqiqotlarda aniqlanishicha, ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, aynan samarali muloqotga tayyorlik – ya'ni kommunikativ kompetensiya bugungi kunda malakali mutaxassisni tayyorlashda asosiy kompetensiyalardan biri

sifatida qaralmoqda. Ushbu kompetensiyaga ega bo'lish nafaqat kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish, balki ijtimoiy integratsiyalashuvda ham muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilar orasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bu ularning shaxsiy rivojlanishi hamda o'zini erkin ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, kommunikativ kompetensiya nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi, balki o'qitish sifatini belgilovchi, yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikning ajralmas elementi sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot jarayonida faol va ongli tinglay olish esa samarali va mazmunli fikr almashinuvining asosi hisoblanadi. Tadqiqotlar kommunikativ kompetensiyaning turli ko'rinishlari mavjudligini ko'rsatmoqda, ular orasida qo'llanish sohasi, ijodiy yondashuv darajasi va kommunikativ roldagi farqlarga asoslangan turlari ajratiladi.

O'quv jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali yondashuvlardan biri bu — o'qituvchining kasbiy fidoiylik turlarini modellashtirishdir. Ish tajribamiz davomida ushbu tipologik yondashuvlarning samaradorligini aniqlashga muvaffaq bo'ldik:

“Suqrot” modeli – bu modelda o'qituvchi dars jarayonida bahs-munozaralarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Intellektual muloqot muhiti o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, dalil keltirishga va o'z nuqtai nazarini asoslashga yo'naltiradi. Bu yondashuv o'quvchilarda analitik tafakkurni rivojlantiradi.

“Guruhiy munozara” modeli – bu yondashuvda o'quvchilar juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlaydi. O'qituvchi esa pedagogik hamkorlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. Natijada, o'quvchilar o'zaro fikr almashadi va birgalikda qaror qabul qilishni o'rganadi.

“Mahorat” modeli – bunda o'qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki shaxsiy namunaga aylangan ustoz sifatida namoyon bo'ladi. Uning har bir harakati, nutqi va xatti-harakati o'quvchilar uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi.

“Intizom” modeli – bu model o'qituvchining aniqlik, tartib-intizom va talabchanlikka asoslangan yondashuvini ifodalaydi. O'qituvchi vaziyatni tez tahlil qiladi, aniq yo'l-yo'riq beradi va muammoga maqbul yechim taklif qiladi.

“Menejer” modeli – ushbu yondashuvda o'qituvchi har bir o'quvchi bilan alohida ishlaydi. U auditoriyada mustaqil fikrlashga undovchi muhit yaratadi, muammoning mazmunini ochadi va natijalarni baholashni o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiradi.

“Murabbiy” modeli – bu uslubda o'quv jarayoni jamoaviy ruhda kechadi. O'qituvchi o'quvchilarning hamkorlikda ishlashiga, o'zaro yordam va birdamlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Uning asosiy vazifasi — guruh a'zolarini umumiy muvaffaqiyat sari ilhomlantirishdir.

O'qituvchilarning o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga nisbatan mas'uliyatli yondashuvi o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardandir. Bu borada mashg'ulotlar davomida quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiqdir:

“Muloqotga doimiy tayyorgarlik” – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotda yuzaga keladigan umumiy yoki shaxsiy to'siqlar axborotning noto'g'ri talqin

qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi doimiy ravishda muloqotga tayyor bo'lishi lozim.

“Aniq ifoda” – o'quvchilarning mavzuni to'g'ri anglashlari uchun o'qituvchi mavhum so'zlar va kam uchraydigan terminologiyalardan saqlanishi, aniq va tushunarli tilda fikr bildirishga intilishi kerak.

“Xatolik ehtimolini e'tiborga olish” – muloqotda har bir inson o'z qarashlarida xato qilishi mumkinligini tan olish, murosaga tayyor bo'lishga va noto'g'ri qarorlardan saqlanishga yordam beradi.

“Ochiq muloqotga tayyorlik” – suhbat davomida o'z fikrlarini qayta ko'rib chiqishga tayyor bo'lish, suhbatdoshning nuqtai nazarini tushunish va hisobga olish muloqot sifatini oshiradi.

“Qayta aloqa mexanizmi” – aloqaning asosiy maqsadi – tomonlar o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlashdir. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan doimiy teskari aloqani yo'lga qo'yishi lozim.

Kommunikativ kompetensiya bir necha asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular o'zaro uyg'unlikda shaxsning muloqotga tayyorlik darajasini belgilaydi. Ular quyidagilar: kommunikativ bilimlar, kommunikativ ko'nikmalar va kommunikativ qobiliyatlar.

Kommunikativ bilimlar quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- muloqotning mohiyatini anglash, uning shakllari va bosqichlarini bilish;
- kommunikatsiya vositalari va texnikalarini tushunish, ularning imkoniyatlari va chegaralarini farqlash;
- turli insonlar va vaziyatlar bilan samarali muloqot qurish usullarini o'zlashtirish;
- shaxsiy kommunikativ salohiyatning rivojlanish darajasini tahlil qilish va o'z faoliyatida samarali usullarni qo'llashga tayyorlik.

Kommunikativ ko'nikmalar quyidagi jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

- to'g'ri va aniq fikr bildirishga xizmat qiluvchi nutqiy mahorat;
- tashqi (mimika, jest) va ichki (fikr yuritish) ifodaning uyg'unligi, shuningdek, muloqotda yuzaga keladigan to'siqlarni yengib o'tish qobiliyati;
- interaktiv ko'nikmalar: demokratiyaga asoslangan muloqot yuritish, ijobiy psixologik muhitni yaratish, o'z-o'zini boshqarish, kasbiy etikaga rioya qilish, faol tinglash madaniyatini shakllantirish;
- ijtimoiy-perseptual salohiyat: suhbatdoshning xatti-harakatini to'g'ri idrok etish, imo-ishoralar orqali uning hissiy holatini anglash, istak va niyatlarini baholay olish, ijobiy taassurot qoldirish va munosib obraz shakllantirish.

Kommunikativ qobiliyatlar esa quyidagi faoliyat turlarini amalga oshirishda namoyon bo'ladi:

- muloqot yuz beradigan vaziyatning ijtimoiy-psixologik jihatdan oldindan bahosini berish;
- mavjud shart-sharoitlarga mos holda muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik dasturlash;
- muloqotni ijtimoiy-psixologik asosda samarali boshqarish, unga ongli ravishda yo'naltirish berish.

Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, ilgari surilgan gipotezani asoslash va tekshirish maqsadida biz quyidagi ilmiy metodlardan foydalandik:

Nazariy metodlar: falsafiy va metodologik yondashuv asosida tahlil qilish, psixologik, pedagogik hamda metodik adabiyotlarni o'rganish, mavzuga oid me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish, ilgari qo'llanilgan tajribalarni o'rganish, qiyosiy tahlil, tasniflash, tarkibiy tahlil va modellashtirish asosida asosiy tushunchalar va tamoyillar ishlab chiqildi.

Empirik metodlar: o'quvchilar orasida so'rovnomalar o'tkazish, testlar orqali ularning kommunikativ kompetensiya darajasini aniqlash, o'quv faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish, ekspert baholash asosida aniqlovchi xulosalar chiqarish, bevosita kuzatuv olib borish va pedagogik eksperiment (aniqlovchi va shakllantiruvchi bosqichlar) orqali amaliy jihatdan gipotezani tekshirish orqali amalga oshirildi.

Olib borilgan izlanishlar asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Texnikumlarda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyani samarali shakllantirish ko'p jihatdan o'qituvchilarning o'zlaridagi kommunikativ salohiyat darajasiga bog'liq bo'lib, bu omil ta'lim samaradorligining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik boshqaruv uslubining tanlanishi bevosita pedagogik muloqotning moslashuvchanligi, o'zgaruvchanligi, shuningdek o'quvchilar shaxsiyati, yosh xususiyatlari va o'quv faoliyatining turli jihatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida umumlashtirilgan psixologik-pedagogik bilimlardan samarali foydalana oladigan, nutqiy madaniyati rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan va to'g'ri muloqot usullarini tanlaydigan mutaxassislarni shakllantirish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning zarur sharti sifatida e'tirof etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Прозорова Е.В. Педагогические условия развития коммуникативной компетентности // Мир психологии. — 2003
2. Mingboyev U. X., Raxmatov A. Sh. Zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanib bo'lajak muhandislarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish // Komyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik amjuman materiallari to'plami 1-qism. 2024.
3. Raxmatov A. Sh. "Raqqamli ta'lim muhitida talabalarda kasbiy-kommunikativ kompetentlik" // Kasb-hunar ta'limi jurnali, 2025-yil 1-son

## **TA'LIM TRANSFORMATSIYASI TUSHUNCHASI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR**

**Xanberdiyeva Mumtoza Ruslanovna**  
Xalqaro Nordik Universiteti PhD mustaqil izlanuvchisi,